AHMEDOVA F.M

SHAHAR SOTSIOLOGIYASI

O‘QUV QO‘LLANMA



Сканировано с CamScanner

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O’ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AHMEDOVA F.M.

SHAHAR SOTSIOLOGIYASI O‘QUV QO‘LLANMA

60311000- Sotsiologiya ta’lim yo‘nalishi uchun

TOSHKENT
VNESHINVESTPROM
2023

UO'K: 911.375(075.8)
KBK 26.8ya73

Ahmedova F.M. "Shahar sotsiologiyasi". O'quv qo'llanma –T.: "VNESHINVESTPROM". 2023. - 256bet.

O'quv qo'llanma Oliy ta'lim Davlat standarti asosida fanning namunaviy o'quv dasturiga mos ravishda 60311000 -Sotsiologiya ta'lim yo'nalishining bakalavr bosqichi talabalari uchun tayyorlangan. O'quv qo'llanma magistrlar, doktorantlar va professor-o'qituvchilar hamda "Shahar sotsiologiyasi" fanini mustaqil o'ganmoqchi bo'lgan o'quvchilar foydalanishlsri mumkin. Mazkur o'quv qo'llanmada "Shahar sotsiologiyasi" fanidan mavzularga oid asosiy savollar tayanch tushunchalar, O'quv qo'llanmada shahar sotsiologiyasiga ta'luqli masalalar 15ta mavzuga bo'lib talqin qilingan, har bir mavzuga tayanch tushunchalar, nazariy matn, mustaqil o'zlashtirish uchun savollar, testlar berilgan. O'quv qo'llanma O'zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya kafedrasida tayyorlangan.

Mas'ul muharrir:
Bekmurodov M.B.– professor, sotsiologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:
Zaitov E.X. – dotsent, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kadirova X.B.– dotsent, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur o'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2023 yil _____dagi __-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga tavsiya etildi.

ISBN 978-9910-99670-2

© Ahmedova F.M
© «Vneshinvestprom» nashriyoti

Annotatsiya

O’quv qo’llanma shaharlardagi ijtimoiy munosabatlarni va bu sohasiga oid ijtimoiy masalalarni sotsiologik tadqiq qilishni, shaharlarni o’rganishga oid turli xil qarashlar, Shahar sotsiologiyasining predmeti bu sohasidagi qonuniyatlarni, shahar kommunikativ makon sifatida namoyon bo'lishining o'ziga xos shakllarini ochib beradi. O'quv qo'llanmaning nazariy qismi ushbu fanning bugungi ahvoli va istiqbolini, shahar qiyofasi – semantik konstruksiya, marginallik shahar sotsiumining asosiy tavsifi, globallashuv va urbanizatsiya, shahar hayoti, madaniyati va shaharga oid yangicha turmush tarzlari, shahar jarayonlari: boshqaruv, rejalashtirish, rivojlantirish, qurilish va ekologiya sohasida ro'y berayotgan hodisalar va jarayonlarni, shahar sotsiologiyasi fanining tarmoq yo‘nalishlari, ya’ni shaharni aloxida ijtimoiy-xududiy uyushma sifatida o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, shaharning ijtimoiy strukturasi va ijtimoiy islohotlar muammolarini ochib berishga mo'ljallangan. O‘quv qo‘llanma talabalar, o‘qituvchilar, shuningdek, “Shahar sotsiologiyasi” fani bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

Аннотация

В учебном пособии раскрываются социологические исследования социальных отношений в городах и социальных проблем, связанных с этой сферой, различные взгляды на изучение городов, закономерности в этой области предмета социологии города, специфические формы проявления города как коммуникативное пространство. Теоретическая часть учебника освещает современное состояние и перспективы этой науки, образ города - смысловую конструкцию, основное описание городского общества маргинальности, глобализации и урбанизации, городской жизни, культуры и нового образа жизни, связанного с городом, городские процессы: управление, планирование, развитие, можно раскрыть события и процессы, происходящие в сфере строительства и экологии, отраслевых направлений науки социологии города, то есть теоретико-методологические основы изучения города как обособленное общественно-территориальное объединение, социальная структура города и задачи социальных преобразований. Пособие предназначено для студентов, преподавателей, а также широкого круга читателей, интересующихся наукой «Социология города», а также для тех, кто интересуется данной проблемой.

Annotation

The textbook reveals sociological studies of social relations in cities and social problems related to this area, different views on the study of cities, regularities in this area of the subject of urban sociology, specific forms of manifestation of the city as a communicative space. The theoretical part of the textbook covers the current state and prospects of this science, the image of the city is a semantic structure, the main description of the urban society of marginality, globalization and urbanization, urban life, culture and a new way of life associated with the city, urban processes: management, planning, development, it is possible to reveal the events and processes taking place in the field of construction and ecology, sectoral areas of science of the sociology of the city, that is, the theoretical and methodological foundations for studying the city as a separate social-territorial association, the social structure of the city and the tasks of social transformations. The manual is intended for students, teachers, as well as a wide range of readers interested in the science of «City Sociology».

SO‘Z BOSHI

Shahar sotsiologiyasining asoslarini tushunish uchun talabalar shahar va makon sotsiologiyasining asosiy tushunchalarining mohiyatini, shahar makonini o’rganishning eng muhim nazariy tushunchalarining mazmunini, shahardagi funksiyalarini tushunishlari kerak. Kasbiy jihatdan ahamiyatli ko’nikmalarni shakllantirish uchun (shahar infratuzilmasining ishlab chiqarish, ijtimoiy va boshqa tarkibiy qismlarini sotsiologik tahlil qilish) talabalar shaharni empirik o’rganishda asosiy sotsiologik yondashuvlarni qo’llashni o’rganishlari va tahlil qilishlari kerak.

O’zbekistonda shahar infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholiga yashash uchun qulay sharoitlar yaratish bo’yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Yangi O’zbekistonda endilikda poytaxt va yirik shaharlardagi yangi qurilishlar shahar tashqarisida amalga oshirilishi va daraxtlar kesilishi masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, davlat rahbari «yashil hududlarni kamaytirish holatlari tufayli turarjoy mavzelarida odamlar sayr qiladigan joylar qolmayotganini» ta’kidlamoqda[1].

Shahar sotsiologiyasi sohasini o’rganish talabalarga shahar muhitiga tanqidiy sotsiologik nuqtai nazarni va sotsiologik nazariyalarni shahar kundalik hayotini tahlil qilishda qo’llash qobiliyatini ta’minlash uchun mo’ljallangan. Shaharning fazoviy-vaqtinchalik xususiyatlari va funksiyalarini hisobga olish talabalarga makon va shaharning zamonaviy sotsiologik nazariyalarining asoslari, shuningdek, shahar tuzilishining fundamental va amaliy jihatlarining o’zaro bog’liqlik va o’zaro ta’sir usuli sifatida tushunishga imkon beradi.

“Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo’lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to’la javob beradigan obyektiv zaruratdir”[2]. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida bayon etilgan yangi g‘oya va tashabbuslar saylovchilar, butun xalqimiz bildirgan taklif, fikr hamda mulohazalar bilan umumlashtirilishi va takomillashtirilishi hisobiga yanada sayqal topdi. Jumladan, 34- maqsadda: Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini

[1] Mirziyoyev.Sh.M. «Toshkent va yirik shaharlarda yangi qurilishlar shahar tashqarisida amalga oshiriladi». Toshkent, 17 avgust, 2021. https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/17/president/

[2] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To’ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.

hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish; 36-maqsadida: Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish; 79- maqsadida: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish; 80- maqsadida: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish vazifalar belgilab olingan[3].

Talabalar uchun “shahar sotsiologiyasi” o’quv kursini o’zlashtirish mezoni quyidagi umumiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hisoblanadi:

- tanqidiy idrok etish, umumlashtirish, kasbiy ma’lumotlarni tahlil qilish, maqsadni belgilash va unga erishish yo’llarini tanlash qobiliyati;
- ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar va jarayonlarni xolislik va ilmiy xolislik bilan tahlil qilish qobiliyati;
- sotsiologik nazariya asoslari va sotsiologik tadqiqot usullari bo’yicha asosiy va kasbiy profillangan bilim va ko’nikmalarni kasbiy faoliyatda qo’llash qobiliyati.

Kursni o’rganishda talabalar shahar turmush tarzi va shahar madaniyatining xususiyatlari, ijtimoiy-hududiy tuzilishi, zamonaviy jamiyatdagi shaharning rivojlanish dinamikasi va o’zgarishlarini tushunishga yordam beradi. Mazkur o'quv qo'llanmada “Shahar sotsiologiyasi” fanidan mavzularga oid asosiy savollar, tayanch tushunchalar, nazariy matn, mustaqil o‘zlashtirish uchun savollar, testlar berilgan.

[3] O’sha erda – 416 bet